

POLIZ EKINLARI NOMLARI VA TASNIF QILISH USULLARI

AVEZOVA XULKAR MADAMINOVNA,

Abu Rayxon Beruniy nomidagi UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida poliz ekinlari, xususan, qovun navlarining lisoniy tahlili borasida qilingan tadqiqotlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponimika, toponimika, qovon nomlari, Xorazm poliz ekinlari.

Fitonimlar tilning uzoq tarixga ega bo‘lgan qismidir. Ularda xalq hayoti, madaniyati, tarixi, ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan tashqari, ularni ijod qilgan xalqning tili va tarixiga xos bo‘lgan qadimgi an’analar saqlanib qoladi. Fitonim termini ostida o‘simliklarning nomlari tushuniladi. Fitonimlar ham o‘zbek tili leksikasida o‘ziga xos semantik maydonni hosil qiladi. Bu maydonga “fitonim” arxisemali birliklar - otlar kiradi. O‘simliklar va daraxtlar bilan bog‘liq leksemalar o‘zbek tili leksikasidagi eng katta semantik maydonlardan birini tashkil qiladi. Prof. S.Sahobiddinovning fikricha, yer sharidagi o‘simliklarning 500000ga yaqin turi mavjud bo‘lib, shundan O‘zbekistonda 4148 turdagi o‘simliklar uchraydi. Ular 1023 avlod va 138 oilani tashkil qiladi¹.

O‘simlik va daraxt nomlarining nomlarini, ularning atrofiga birlashgan leksik birliklarni to‘plash va har tomonlama chuqur o‘rganish biz uchun qimmatli ma’lumotlarni berishi mumkin. Prof.A.Sobirovning fikricha, “O‘simliklar (fitonimlar) dunyosi” maydonini quyidagicha semantik mikromaydonlarga bo‘lish mumkin:

1. Suv o‘tlari.
2. Zamburg‘lar.
3. Yovvoyi o‘tlar.
4. Madaniy gullar.
5. Zararli o‘simliklar.
6. Dorivor o‘simliklar.
7. Boshhoqli o‘simliklar.
8. Qora ekinlar.
9. Sabzavot ekinlari.
10. Ozuqabop o‘simliklar.
11. Sanoa ekinlari.
12. Cho‘l, adir, tog‘ o‘simliklari.
13. O‘rmon o‘simliklari.
14. Butalar.
15. Manzarali daraxtlar.
16. Mevali daraxtlar.²

O‘zbek tilshunosligida ayrim o‘simlik nomlari leksemalarining tizimi va badiiy qo‘llanishi G.Ne‘matovanning nomzodlik dissertatsiyasida tadqiq qilingan.³

Biz o‘z tadqiqotimizda A.Sobirovning monografiyasiga keltirilgan tasnifga suyangan holda o‘zbek adiblarining badiiy asarlarida va shevalarda faol qo‘llanilgan fitonimlarni ajratib oldik.

¹Саҳобиддинов С.Ўсимликлар систематикаси. –Тошкент:Ўқитувчи, 1966.

²Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004, 94-б.

³Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши.НДА. -Ташкент, 1998.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Birgina tadqiqot ishi doirasida fitonimlarning barcha 16 ta guruhiga mansub leksemalar haqida fikr bildirib bo'lmashligi tufayli mavzuga asosan ulardan poliz ekinlari nomlarini o'rganishni tanlab oldik. Poliz ekinlari borasida gapirar ekanmiz, Ularni iste'moli, yetishtirilishi va ko'rinishi kabi xususiyatlariga qarab 5 guruhga bo'lishni lozim topdik:

- 1) poliz ekinlari nomlari: *qovun, tarvuz, handalak, qovoq, bodring*;
- 2) ildizmevali ekinlar nomlari: *sabzi, lavlagi, kartoshka, sholg'om, turp, rediska*;
- 3) piyozli ekinlar nomlari: *piyoz, sarimsoq*;
- 4) mevali sabzavotlar nomlari: *pomidor, baqlajon, qalampir, karam*;
- 5) bargli sabzavotlar nomlari: *salat, ukrop, petrushka, selderey* vaboshqalar.

Ushbu guruhlarga mansub birliklarning badiiy matnlarda faol qo'llanishining sababi ular ifodalagan denotatdadir. Zero, ushbu nomlar ifodalayotgan denotatlar o'zbek xalqining hayotida muhim o'rin tutadi, kundalik turmushining ajralmas qismi hisoblanadi. Shunga ko'ra biz o'z tadqiqot ishimizda aynan ularni badiiy va ilmiy matnlardan qidirishga, ularni topib, aniqlab bo'lgandan keyin esa semantik mikroguruhlarga ajratishga qaror qildik.

“Sabzavot ekinlari nomlari” guruhiga oid birliklar juda ko'p bo'lib, ular, asosan, sabzavot ekinlarining nomlaridir. Sabzavot ekinlarini o'stirish, ya'ni sabzavotchilik eng zarur sohaga aylangan. O'zbekistonda ularni o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot instituti ham tashkil qilingan.

Sabzavot yeyiladigan va ovqatga ishlatiladigan sersuv o't o'simligidir. Ularning 120dan ortiq ekiladigan turi ma'lum. O'zbekistonda sabzavotlarning 10 oilaga mansub 90 turi tarqalgan. Sabzavotlarning nomlarini ovqatda ishlatilishiga qarab 5 guruhga bo'lish mumkin:

1. Poliz ekinlari nomlari.
2. Ildizmevalilar nomlari.
3. Piyozlilar nomlari.
4. Mevali sabzavotlar nomlari.
5. Bargi iste'mol qilinadigan sabzavotlar nomlari.

Poliz ekinlari nomlari guruhiga quyidagi otlarni kiritish mumkin:

Bodring - fors-tojikcha qatlamga mansub so'z bo'lib, bir yillik poliz ekini va uning yeyishli hosili nomi.

Yuring, Muzaffar aka, Chorsuga tushib bir bozor qilib kelamiz, otangiz yaxshi ko'radigan bodring-pomidorlardan olib kelamiz (O'.Hoshimov “Ikki eshik orasi”).

Mochalka –ruscha *mochit, mokriy* so'zlaridan kelib chiqqan, yuvinish uchun ishlatiladigan buyum - mochalkaning nomi. Bu nom bilan polizda maxsus o'simlik ham yetishtiriladi va uning hosili – mochalka (Xorazmda *dosmolkadi*) hisoblanadi. Hozirgi kunda bu buyumdan kam foydalanilyapti. Shuning uchun bu so'zni zamonaviy badiiy asarlarda uchratish qiyin. Ammo o'tgan asrda yaratilgan badiiy asarlarda uni tez-tez kuzatish mumkin.

Vazira Hanifa xolaga vannada cho'milishga yordamlashgan, yelkalarini mochalka bilan ishqalab qo'ygan edi (P.Qodirov “Uch ildiz”).

Tarvuz – turkiy qatlamga mansub so'z bo'lib, palak otib polizda o'sadigan sersuv, yumaloq bir yillik o'simlik va uning mevasi nomi. *O'roz qayerdandir katta tarvuz keltirib o'rtaga qo'ydi* (Oybek “Qutlug' qon”).

Qovoq turkiy qatlamga mansub so'z bo'lib, palak otib o'sadigan, shapaloq bargli, yirik sariq gulli o'simlik va uning mevasining nomi.

Qora amma, keling, bugun tomorqamizga ko'p qovoq ekamiz. Kuzda biznikiga kelib rosa qovoq somsa qilib berasiz (O'.Hoshimov “Ikki eshik orasi”).

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Qovun- turkiy qatlamga mansub soʻz boʻlib, palak otib oʻsadigan, yirik va shirin hosilli oʻsimlikning nomi.

Bechora dehqon bir singan aravaga, bir tuyaning kallasidek keladigan qovunlarga yigʻlavorgudek tikilib turardi (Oybek “Qutlugʻ qon”).

Ukang va buvang chaylada qovunni karjlab yeyishibdi. Qizim, endi menga ham eng katta qovunni tilimlab ber (Y.Akram “Yomgʻir kuy”).

Karam - fors-tojikcha qatlamga mansub soʻz boʻlib, poliz ekini, rezavorning bir turi va shu ekinning barglari oʻramidan hosil boʻladigan boshi, hosilining nomi.

Bugun ishdan vaqtliroq kelsam, katta buvinglar yaxshi koʻrib yeydigan karam doʻlma qilib berar edim (F.Usmonova “Dil faryodi”).

Handalak - turkiy qatlamga mansub soʻz boʻlib, qovunning yumaloq, maydaroq, xushboʻy, eti yumshoq, erta yetiladigan turining nomi.

Mahmud sotib olgan handalaklaridan bir-ikkitasini ajratib, ayolning oldiga qoʻydi (T.Malik “Shaytanat”).

BMIda, shuningdek, kuzatilgan fitonimlarning kelib chiqish manbasi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” ga asoslangan holda koʻrsatib borildi. Shunga koʻra quyidagi xulosani keltirish mumkin:

1. Birinchi oʻrinda turkiy qatlamga mansub boʻlgan poliz ekinlari nomlari turadi. Chunki ular son jihatdan koʻpchilikni tashkil qiladi: *tarvuz, qovoq, qovun, handalak*.

2. Ikkinchi oʻrinda fors-tojik qatlamga mansub boʻlgan birliklar turadi. Biz kuzatgan fitonimlarning ichida fors-tojikchasi juda koʻp uchradi: *bodring, karam*.

3. Uchinchi oʻrinda ruscha-baynalmilal qatlamga xos poliz ekinlari nomlari turadi: *mochalka*. Xulosa shuki, poliz ekinlarining nav va xillarini nomlashda nisbatlash, qiyoslash, tavsiflash tamoyillari yetakchilik qiladi. Ularning rang-tusi, shakli, hajmi, koʻrinishi, dorivorligi, oʻsish, yetishtirish hududi, yaratuvchi shaxslarning nomi, mavsumiy xoslanganligi kabi morfologik, kimyoviy va nisbiy belgi-xususiyatlar eʼtiborga olinadi. Poliz oʻsimliklari nomlariga til lugʻat tarkibidagi turkiy, jumladan, oʻzbekcha va arabcha, fors-tojikcha soʻzlar lugʻaviy asos boʻladi.

Adabiyotlar:

1.Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. –Тошкент: Маънавият, 2004, 94-б.

2.Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши.НДА. -Ташкент, 1998.

3.Салоҳиддинов С. Ўсимликлар систематикаси.-Тошкент: Ўқитувчи. 1966.

3.Сапаров М. Туркий тилда полиз экинлари номлари // Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.176-250.

4.Оʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-, 2-, 3-, 4-, 5-tomlar. –Toshkent: OʻzR ME.